

O'QUVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI SHAKILLANTIRISH VA DARS JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH (FIZIKA FANI MISOLIDA)

Mamajonov O'rmonjon Dilshodjon o'g'li
Toshkent shahar UBS magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tezisda 9-sinf maktab o'quvchilarining bilim, ko'nikmalarini rivojlantirish va shakillantirishda AKTdan foydalanishning samarasi, laboratoriya va amaliy ish mashg'ulotlarini tashkil etishdagi talablari, ahamiyati va ularni tashkil etish uchun zaruriy texnik vositalar to'grisida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: video qo'llanma, Fablab, STEAM, Wordwall, interfaol, didaktika.

Аннотация: В данной статье в дипломной работе рассматривается эффективность использования ИКТ в развитии и формировании знаний, умений и навыков школьников 9 класса, требования к организации лабораторных и практических занятий, их значение и необходимые технические средства для их организации.

Kirish (Introduction). Ishlab chiqarish soxasini yanada rivojlantirish, ilg'or fan yutuqlarini va texnologiyalarini joriy etishda, maktab ta'limida o'quvchilarni bilim malakalarini shakllantirish darslarni samarali tashkil etish muhim ro'l o'ynaydi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida aniq va tabiiy fanlarni o'qitish sifatini oshirishning pedagogik imkoniyatlari dolzarb masala sifatida qaralmoqda, xususan fizika fanini o'qitishni amaliy-tadbiqiy mazmun bilan boyitish zaruriyati yuqori ekanligi ilmiy-tadqiqotlar doirasida isbotlanmoqda.

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlar doktori(PhD) Xujanov Erkin Berdiyevich o'z tadqiqot ishida fizikani o'qitishda o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar tarkibini kuzatish, tushuntirish, tajribalar o'tkazish orqali rivojlantirishning pedagogic ahamiyati haqida fikr yuritadi.


Sheraliyev Sa'dullo Suyunboyevich (PhD) o'quvchilarning fizik bilimlarini o'zlashtirishdagi pedagogik-psixologik (kreativ, individual ruhiy), didaktik (motivatsion-faollashuv) va texnik (videolavhalar) talablarning alaqadorligi elektron o'quv vositalarning fizikani o'qitishdagi funksiyalarini belgilash asosida aniqlashtirilgan, o'quvchilarning kreativ fikrlash va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv metodik ta'minot animatsion-namoyishli jarayonlarning xususiyatlarini (virtuallik, illyustrativlik, modellashtirish va imirastiyalashtirish) ochib berish asosida takomillashtirishni ko'rib chiqqan.

Fizika darslarning tashkil etish jarayonida noan'anaviy metodika, didaktik va texnik vositalardan foydalanish, fizik jarayonlarni modellashtirish, virtualashtirish yordamida o'quvchilarni bilim darajasini baholash imkoniyati yuqori bo'lib mashg'ulotlar davomida FabLab, KAHOOT, STEAM, wordwall kabi ta'lim platformalaridan foydalanildi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilish darajasini oshiradi.

Chunki bunday platformalar :

- O'quvchilarning visual tasavvurini oshiradi.
- Zerikarli an'anaviy savol-javoblarni o'yinlar orqali o'tkazish orqali dars jarayonini yangi qiziqarli bosqichga olib chiqadi.
- Mavzularni turli tarafdin qarash orqali dunyoni anglash jarayoni tezlashadi.

Yuqorida taklif etilayotga metodlardan umumiy o'rta ta'limning 6, 7, 8- sinf o'quvchilari uchun "Tabiiy fanlar" darslarini tashkil etishda foydalanish ijobiy samara beradi. Darslarni tashkil etish jarayonida Wordwall platformasi yordamida qiziqarli savol-javoblar o'tkazish va bu orqali esa o'quvchilarni darsda faoligini va o'tilgan mavzularni eslab qolish qobiliyatini oshirish imkoniyati mumkin bo'ladi. Wordwall platformasi mavzu yuzasidan takrorlash jarayonini osonroq va qiziqarliroq o'tkazish uchun juda qulay hisoblanadi. Har bir inson uchun tushunarli va soda platformadir.



1-rasm: Wordwall platformasi interfeysi

FabLab dasturi yordamida virtual laboratoriyalar tashkil etilib, laboratoriya jihoz imkoniyati bo'lmagan holda o'quvchilarni mavzu yuzasidan amaliy ishlari bajarildi. Darslik kitobida berilgan amaliy mashg'ulotlari amalga oshirish jarayoni zamonaviy texnik vositalar yordamida ko'rsatib berildi. Bu jarayon o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga imkon yaratdi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, umumta'lim maktablarida o'quvchilarga tabiiy fanlar o'qitish jarayonida AKT lardan faol foydalanish o'quvchilarni bilim salohiyatini oshirishga, dars jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etib, o'zlashtirish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
2. Xujanov Erkin Berdiyevich. "Uzluksiz ta'lim tizimida fizika o'qitishni ehtimoliy-statistik g'oya va tushunchalarini shakllantirish asosida takomillashtirish va o'quv qo'llanma yaratish" 2015.
3. Sheraliyev Sa'dulo Suyunberdiyevich. "O'quvchilarning fizik bilimlarini o'zlashtirishdagi pedagogic-psixologik, didaktik va texnik talablarning aloqadorligi" 2017
4. Инновацион таълим технологиялари /Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: "Сано стандарт" нашриёти, 2015. – 81-б.